

TOG'AY MUROD ASARLARIDA LEKSIK BIRLIKLARNING POETIK VA
EKSPRESSIV IMKONIYATLARI

Niyozmetov Bunyodbek Qadamboy o'g'li

Xorazm Ma'mun akademiyasi tayanch doktoranti

bunyodbekniyozmuhammad27@gmail.com +998947120210

Annotatsiya: Ushbu maqola Tog'ay Murodning "Otamdan qolgan dalalar" (1994) va "Bu dunyoda o'lib bo'lmaydi" romanlarida leksik birliklarning poetik va ekspressiv imkoniyatlarini ilmiy jihatdan o'rganishga bag'ishlangan. Tadqiqot davomida muallif badiiy tilining o'ziga xos xususiyatlari — takrorlar, metaforalar, rang timsollari, xalqona frazeologizmlar, ekspressiv fe'llar va sintaktik parallelizm kabi vositalar lingvistik hamda stilistik tahlil usullari orqali ko'rib chiqilgan. Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, Tog'ay Murod leksik birliklarni yozuvchilik mahorati bilan to'ldirib, milliy til va xalq ruhiyatining teran qatlamlarini ifodalashga erishgan. So'z tanlash, gap qurilishi va sintaktik takrorlarning bir-biriga uyg'unlashuvi orqali adib o'quvchiga his-tuyg'u va milliy ong uyg'otishga, xalq tarixini poetik tilda bayon qilishga muvaffaq bo'lgan.

Kalit so'zlar: leksik birlik, poetik leksika, ekspressiv leksika, stilistika, Tog'ay Murod, badiiy til, metafora, takror, frazeologizm, rang timsoli.

Annotation: This article examines the poetic and expressive potential of lexical units in Tog'ay Murod's novels "Otamdan qolgan dalalar" (Fields Left by My Father, 1994) and "Bu dunyoda o'lib bo'lmaydi" (One Cannot Die in This World). The study analyzes the distinctive features of the author's artistic language — including repetitions, metaphors, color symbolism, folk phraseology, expressive verbs, and syntactic parallelism — through linguistic and stylistic methods. The findings demonstrate that Tog'ay Murod masterfully employs lexical units to articulate the deep layers of national language and the spirit of the Uzbek people. Through the harmonious interplay of word choice, sentence structure, and syntactic repetitions, the writer succeeds in evoking emotions, awakening national consciousness, and narrating the history of the people in poetic language.

Keywords: lexical unit, poetic lexis, expressive lexis, stylistics, Tog'ay Murod, artistic language, metaphor, repetition, phraseologism, color symbolism.

KIRISH

O'zbek badiiy nasrida so'z san'ati hamisha alohida o'rin tutgan: yozuvchi qo'llagan har bir so'z nafaqat voqeani tasvirlash, balki o'quvchida muayyan his-tuyg'u, obrazli tasvir va estetik ta'sir uyg'otish uchun xizmat qiladi. Leksik birliklarning — ya'ni so'zlar, birikmalar va frazeologizmlarning — badiiy matndagi poetik va ekspressiv imkoniyatlari tilshunoslik va stilistikaning dolzarb muammolaridan biri bo'lib kelgan. Ferdinand de Saussure'ning belgi nazariyasiga ko'ra¹, har qanday leksik

¹ Saussure F. de. Kurs obshchey lingvistiki. — Moskva, 1977. — B. 98.

birlik ikki tomonlama tuzilishga — shakl va mazmun — ega bo'lib, badiiy matnda bu mazmun qatlami estetik ta'sir o'tkazish maqsadida maxsus ishga solinadi. O'zbek tilshunosligida so'zning leksik-semantik tizimda tutgan o'rni, ko'p ma'nolilik va semantik siljishlar Nurmonov A. tomonidan batafsil o'rganilgan bo'lib², uning ishlari o'zbek leksikasining badiiy matn uchun qanchalik boy imkoniyatlarga ega ekanligini ko'rsatib beradi. Is'hoqov Y. esa ekspressiv va poetik leksikaning tizimli tasvirini yaratgan³, bunda stilistik bo'yoq va hissiy yuklamaning so'z tanlashga qanday ta'sir qilishi asoslab berilgan. Xorijiy stilistikada esa V. Arnold o'zining "Stilistika sovremennogo angliyskogo yazyka"⁴ asarida leksik birliklarning stilistik funksiyalarini, xususan, ularning badiiy matnda obraz yaratish, emotsional ta'sir kuchaytirish va kontekstual ma'no o'zgartirishdagi rolini batafsil yoritadi. U leksik birliklarni stilistik tahlilda paradigmatic (tasviriy) va sintagmatic (ekspressiv) guruhlariga ajratib, ularning badiiy matnda qanday hosil qilishini ko'rsatadi. Arnoldga ko'ra, so'zlarning stilistik qo'llanilishi nafaqat ularning denotativ ma'nosini saqlab qoladi, balki hissiy yuklama, emotsional komponent va stilistik qatlam orqali o'quvchida chuqur estetik ta'sir uyg'otadi. Masalan, u epitet, metafora va boshqa tropalarning leksik darajada qo'llanilishini tahlil qilib, ularning matni boyitishdagi muhimligini ta'kidlaydi. Shuningdek, I.R. Galperin o'zining "Stylistics" asarida⁵ leksik birliklarning stilistik qurilmalari sifatida tasnifini beradi. U leksik ekspressiv vositalarni uch katta guruhga ajratadi: intentional mixing of the stylistic aspect of words (so'zlarning stilistik jihatini qasddan aralashtirish), intensifiers va boshqalar. Galperin leksik birliklarning hissiy-ekspressiv imkoniyatlarini batafsil tahlil qilib, ularning badiiy matnda emotsional kuchaytirish, ironiya, metaforik ma'no siljishlari va stilistik kontrast yaratish uchun ishlatilishini asoslaydi. Uning nazariyasiga ko'ra, leksik birliklarning stilistik effekti ularning semantik tuzilishidagi o'zgarishlar (contextual, emotive, stylistic komponentlar) orqali hosil bo'ladi va bu badiiy matnning ekspressivligini oshiradi.

Shunday qilib, Arnold va Galperinning ishlari xorijiy stilistikada leksik birliklarni nafaqat til birligi, balki badiiy matnning asosiy estetik va emotsional vositasi sifatida ko'rib chiqishga asos solgan. Ularning tahlillari o'zbek badiiy nasrida so'z san'atining o'rni va imkoniyatlarini tushunishda muhim nazariy tayanch bo'lib xizmat qiladi. Shu nuqtai nazardan, Tog'ay Murod ijodi o'zbek nasrida o'ziga xos bir hodisa bo'lib, uning romanlari faqat syujet jihatidan emas, balki til-uslub boyligi, leksik tanlovi va musiqiy-ritmik qurilishi bilan ham adabiyotshunoslar diqqatini tortib kelgan. Yozuvchi har bir so'zga alohida ma'no yuklaydi, matn ritmini she'riy asarlarga yaqinlashtiradi hamda arxaik, dialektal va frazeologik leksikadan xalq ruhini ifodalash vositasi sifatida mohirona foydalanadi. Buning natijasida uning asarlari oddiy nasriy asardan ko'ra

² Nurmonov A. O'zbek tilining leksikologiyasi. — Toshkent, 2015. — B. 45. Mazkur asar o'zbek tili leksik tizimining dinamik xususiyatlarini batafsil yoritib, leksik birliklarning badiiy matndagi semantik imkoniyatlarini tushunish uchun muhim nazariy asos yaratadi.

³ Is'hoqov Y. So'z san'ati so'zligi. — Toshkent, 2014. — B. 112. Ushbu so'zlikda ekspressiv va poetik leksikaning tasnifi berilgan bo'lib, stilistik bo'yoq va hissiy yuklamaning badiiy matnda tutgan o'rni to'liq asoslanadi.

⁴ Arnold I.V. Stilistika sovremennogo angliyskogo yazyka. — Leningrad, 1981. — B. 142.

⁵ Galperin I.R. Stylistics. — Moscow, 1977. — P. 67

ko'proq poetik-falsafiy matn xususiyatini kasb etishga xizmat ko'rsatganligiga guvoh bo'lamiz.

Ushbu tadqiqotda mazkur bo'shliqni to'ldirish maqsadida Tog'ay Murodning "Otamdan qolgan dalalar" hamda "Bu dunyoda o'lib bo'lmaydi" romanlaridagi leksik birliklarning poetik va ekspressiv imkoniyatlari qisman ko'rsatilib, ularning semantik qatlamlari, stilistik bo'yog'i va badiiy matndagi vazifalari ko'rib chiqiladi; leksik takror, metafora, rang timsoli, frazeologizmlar hamda arxaik-dialektal shakllarning yozuvchi qo'lida qanday badiiy kuchga aylanishi tahlil qilinadi. Muallif badiiy tilining o'ziga xos stilistik xususiyatlari aniqlanib, natijalarga asoslanib xulosalar chiqariladi — buning barchasi Tog'ay Murod nasrining leksik-stilistik manzarasini yangi ko'rinishda ochib berish imkonini yaratadi.

METODLAR

Tadqiqotda asosiy manba sifatida Tog'ay Murodning "Otamdan qolgan dalalar" va "Bu dunyoda o'lib bo'lmaydi" romanlarining to'liq matni bevosita o'qilib, poetik va ekspressiv jihatdan ahamiyatli leksik birliklar ajratib olindi. Ajratilgan parchalar I.R. Galperinning stilistika nazariyasi va I.V. Arnoldning ekspressiv vositalar tasnifi asosida leksik-stilistik tahlildan o'tkazildi; bunda leksik birliklarning denotativ va konnotativ ma'nolari, stilistik bo'yog'i va badiiy kontekstdagi vazifasi e'tiborga olindi. Leksik birliklarning semantik qatlamlari, ko'p ma'noliligi va kontekstual ma'no kengayishlari Saussure belgi nazariyasi va Nurmonov leksikologiyasi asosida o'rganildi. Asarlardagi metaforik birliklar Lakoff va Johnsonning kognitiv metafora nazariyasi⁶ yordamida tasniflanib, ularning konseptual mohiyati ochib berildi. Maqollar, frazeologizmlar va xalqona iboralar esa Is'hoqov Y. tasnifi hamda Wales K.ning zamonaviy stilistika lug'ati mezonlari⁷ asosida ajratildi. Bundan tashqari, ikkala roman o'rtasidagi leksik-stilistik o'xshashliklar va farqlar qiyosiy-tipologik tahlil yordamida aniqlanib, leksik birliklarning poetik va ekspressiv imkoniyatlari keng miqyosda baholandi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Tog'ay Murodning "Otamdan qolgan dalalar" romanida nasrni she'rga yaqinlashtiruvchi eng muhim poetik vositalardan biri ritmik takror va sintaktik parallelizmdir. Romanining dastlabki sahifalaridayoq yozuvchi bu usuldan keng foydalanadi: "Bobomiz hovlisi Farg'onada bo'ladi. Dalasi Farg'ona adog'ida bo'ladi. Bobomiz dalasi oldidan bir ariq suv oqadi. Suv gavhar zilol-gavhar zilol suv bo'ladi. Suv egilmish tollar majnun-majnun sollanadi."⁸ Har bir gapning bir xil tuzilishi — kesim doimo oxirda, ot-kesim "bo'ladi" bilan tugashi — nafaqat ritmik tekislik yaratadi, balki Farg'ona zaminini va boboning hayotini muqaddas, o'zgarmas bir voqelik sifatida tasvirlaydi. "Gavhar zilol-gavhar zilol" iborasi takroriy leksik birikma sifatida suvga muqaddaslik va poklik ma'nosini yuklaydi; bu takror musiqiy-ritmik ohangni kuchaytirish bilan birga, tasvirning estetik ta'sirini ham ikki baravar oshirib bergan. Shuningdek, "bo'ladi" (ya'ni, mavjud, bor) shakli ham Farg'ona shevasining o'ziga xos

⁶ Lakoff G., Johnson M. *Metaphors We Live By*. — Chicago, 1980. — P. 3.

⁷ Wales K. *A Dictionary of Stylistics*. — Harlow, 2011. — P. 143.

⁸ Tog'ay Murod. *Otamdan qolgan dalalar*. — Toshkent: Sharq, 1994. — B. 1.

belgisi bo'lib, "Bobomiz hovlisi Farg'onada bo'ladi" iborasida "bor" o'rnida ishlatilishi matnni milliy-mahalliy ruhga olib kirishga xizmat qilgan. Asarning shu sahifasida yana "egilmish tollar majnun-majnun sollanadi" iborasi e'tiborni tortadi. Bu yerda "egilmish" so'zi arxaik fe'l shaklining sifatdosh ko'rinishi bo'lib, hozirgi adabiy tilda ko'pincha "egilgan" shakli qo'llaniladi. Tog'ay Murod esa bu arxaik shakldan ongli ravishda foydalangan va bu "egilmish" so'zi matnga eski davrlardan qolgan, azaliy tabiat tasvirini berib, she'riy ohang yaratishga asos bo'lgan. Bu dialektal va arxaik shakllarning qo'llanishi tasodifiy emas — ular Tog'ay Murod badiiy tilining asosiy belgilaridan biri sifatida matnning tabiiyligini va milliy ruhini ta'minlaydi.

"Otamdan qolgan dalalar" romanida rang leksikasi alohida konseptual va ekspressiv qatlamga ega bo'lib, romanining o'n oltinchi sahifasida otaning Dehqonqulga aytgan so'zlari bu qatlamni to'liq ochib beradi: "Dehqonqul! Qizil yomon-da, qizil yomon. Boisi, qizil rang — qon rang! Qon yomon, yomon!.. Dehqonqul, qon rangdan panoh tilama. Qon rang — jallod rang!"⁹ Bu yerda "qizil = qon = jallod" metaforik zanjiri yaratilib sovet hokimiyatining ramzi bo'lgan qizil rangi avval qon rangiga, keyin esa jallod rangiga tenglashtirilganligi alohida ahamiyat kasb etishga xizmat qilgan. Ushbu konseptual metafora orqali siyosiy tizimga nisbatan munosabat bevosita aytilmay, rang leksikasi vositasida ifodalanganligi Tog'ay Murodning leksik mahoratining eng yorqin namunalaridan biridir. Yozuvchi bitta "qizil" so'zi orqali so'zning o'z denotativ ma'nosidan chiqarib, ijtimoiy-siyosiy munosabatni ifodalovchi ekspressiv ramzga aylantirish vazifasini o'tagan.

"Bu dunyoda o'lib bo'lmaydi" romanida Tog'ay Murod ekspressiv harakat fe'llari va ravishlarda²ⁿ foydalanib, qahramon portretini ixcham va ta'sirchan tarzda ochib beradi. Romanning birinchi sahifasidanoq Qo'shchining(Botir Firqa) obrazi shunday yaratiladi: "Qo'shchi kalondimog'-kalondimog' qadam bosdi. Kibor-kibor quloch otdi. Kerma qosh-kerma qosh boqdi. Kolxoz idorasi qoshida oyoq ildi. Idora tomiga serdimog' nazar soldi... narvondan tomladi. Tomda qo'llarini ketiga qo'ydi. Tom boshadog'ilab qadamladi. Vazmin-vazmin qadamladi."¹⁰ Ushbu parchlardagi "tomladi", "qadamladi" kabi fe'llar oddiy "tomga chiqdi" yoki "qadam tashladi" degan ma'noni bildirsa-da, ular o'z o'ziga xos qurilishi bilan harakatni yanada aniq va obrazli qilib ko'rsatadi. Takroriy so'zlar esa — "kalondimog'-kalondimog'", "kibor-kibor", "vazmin-vazmin" — qahramonning keksalik va o'zini ulug'tutarlik xususiyatini musiqa kabi ritmik ravishda ochib beradi.

Romanining beshinchi sahifasida ocharchilik fojiasi juda chiroyli ekspressiv tasviriy leksika orqali ifodalanganligiga guvoh bo'lamiz: "Ona bir yo'lovchiga qo'l cho'zdi. — Mana shu qizaloqni ola keting, sizga qiz bo'ladi! — dedi. — Bir kulchaga almashaman, bir kulchaga!"¹¹ va "Onalar... tasbehday-tasbehday tizilib o'tirdi." Bu yerda "tasbehday-tasbehday" o'xshatma-sifatlovchi tasbehdagi donalarni eslatuvchi ixcham tasvirni yaratadi: onalar navbatga tizilgan, har biri farzandini bir luqma nonga

⁹ Tog'ay Murod. Otamdan qolgan dalalar. — Toshkent: Sharq, 1994. — B. 16.

¹⁰ Tog'ay Murod. Bu dunyoda o'lib bo'lmaydi. — B. 1.

¹¹ Tog'ay Murod. Bu dunyoda o'lib bo'lmaydi. — B. 5.

almashtirishga shay. Bu tasvir ocharchilik fojiasini bevosita tasvirlamasdan, ramziy-ekspressiv vosita orqali o'quvchi xayolida yanada chuqur iz qoldiradi. "Bir kulchaga almashaman" iborasi esa arziyas narsa (kulcha) va ulkan fojia (bola hayoti) o'rtasidagi ziddiyat orqali lirik ironiya yaratadi — bu kontrast matnning ijtimoiy-ekspressiv kuchini ikki baravar oshiradi hamda o'qirmanda achinish tuyg'usini uyg'otib hozirgi kundagi ijtimoiy ahvolidan qoniqish hissini beradi.

"Otamdan qolgan dalalar" romanining uchinchi sahifasida xalqona frazeologizmlar milliy ruh va tarix falsafasini ifodalaydigan eng kuchli vosita bo'lib xizmat qiladi: "Bo'laman degich el, bir-birini botirim deydi, bo'lmayman degich el, bir-birini etini yeydi."¹² Bu ibora — o'zbek maqolchiligidagi eng chuqur falsafiy fikrlardan biri — millat birligining hayot-mamot masalasiga bog'liqligini poetik tarzda ifodalaydi. Uning matnga kiritilishi tasodifiy emas: rus bosqini va xalq parchalanishi tasvirlanadigan kontekstda bu frazeologizm ijtimoiy tanqid va tarixiy xitobni o'z ichiga oladi. Shunga o'xshash xalqona iboralar "Bu dunyoda o'lib bo'lmaydi" romanida ham bir necha o'rinlarida uchraydi, bu esa Tog'ay Murodning ikkala asarida ham frazeologik leksikani milliy ruh va tabiiylik yaratish uchun izchil qo'llaganini ko'rsatib beradi.

Yuqoridagi tahlillar shuni ko'rsatadiki, Tog'ay Murod nasrida leksik takror faqat stilistik bezak emas, balki nasrni she'rga yaqinlashtiruvchi asosiy qurol — "poetik proza" belgisi — bo'lib xizmat qiladi. Uning metafora tizimi yaxlit konseptual tizimni tashkil qiladi: "Dala = Vatan", "Qizil = Qon = Jallod" kabi metaforik zanjirlar ijtimoiy-siyosiy munosabatni ifodalovchi ekspressiv vositalarga aylanadi. Ekspressiv leksika, masalan "Botir firqa" obrazining qurilishi, ijtimoiy tanqid va lirik ironiya vositasi bo'lib xizmat qiladi. Arxaik va dialektal leksika esa matnning milliy bo'yog'ini oshirib, Tog'ay Murod uslubini o'zbek adabiy tilida o'ziga xos bir hodisa darajasiga ko'taradi.

XULOSA

Tog'ay Murodning "Otamdan qolgan dalalar" va "Bu dunyoda o'lib bo'lmaydi" romanlarida leksik birliklarning poetik va ekspressiv imkoniyatlarini tahlil qilish bir necha muhim xulosaga olib keldi. Birinchidan, leksik takror va sintaktik parallelizm ushbu romanlarda musiqiy-ritmik qurilishni ta'minlovchi asosiy poetik vositadir; bu usul yozuvchining nasrini she'riy matnga yaqinlashtiradi. Ikkinchidan, rang leksikasi, xususan qizil rang obrazi, ijtimoiy-siyosiy munosabatni ifodalovchi konseptual metafora sifatida qo'llanilgan. Uchinchidan, ekspressiv harakat fe'llari va takroriy so'zlar qahramon portretini ixcham va ta'sirchan tarzda ochib berishga xizmat qiladi. To'rtinchidan, frazeologizmlar va arxaik leksika milliy madaniy semantikani saqlaydi va matnga autentiklik bag'ishlaydi. Beshinchidan, ijtimoiy fojia — jumladan, ocharchilik tasvirlari — ekspressiv leksikaning intensifikatsion qatlamlari orqali ifodalanib, o'quvchida kuchli emotsional ta'sir qoldiradi. Umuman olganda, Tog'ay Murod leksik birliklarni oddiy so'z sifatida emas, balki milliy til va xalq ruhiyatining teran qatlamlarini ochib beruvchi badiiy vosita sifatida qo'llaganligini ko'rsatib beradi.

¹² Tog'ay Murod. Otamdan qolgan dalalar. — Toshkent: Sharq, 1994. — B. 3,

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Saussure F. de. Kurs obshchey lingvistiki. — Moskva, 1977. — B. 98-115.
2. Nurmonov A. O'zbek tilining leksikologiyasi. — Toshkent, 2015. — B. 45-78.
3. Is'hoqov Y. So'z san'ati so'zligi. — Toshkent, 2014. — B. 112-134.
4. Arnold I.V. Stilistika sovremennogo angliyskogo yazyka. — Leningrad, 1981. — B. 142-168.
5. Galperin I.R. Stylistics. — Moscow, 1977. — P. 67-89.
6. Wales K. A Dictionary of Stylistics. — Harlow, 2011. — P. 143-145.
7. Lakoff G., Johnson M. Metaphors We Live By. — Chicago, 1980. — P. 3-13.
8. Tog'ay Murod. Otamdan qolgan dalalar. — Toshkent: Sharq, 1994. — B. 1, 3, 16.
9. Tog'ay Murod. Bu dunyoda o'lib bo'lmaydi. — B. 1, 5.